

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**


Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год


Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева Теоретические основы лексической системы языка в рамках синтагматики и парадигматики.....	203
Z.V.Alimova Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida “Xud” so’zi va uning morfologik belgilari xususida	208
M.M.Asranova O‘zbek tilida siyosiy diskurs individualligini ta’minlovchi leksik va morfologik vositalar	213
O.M.Khudoyberdieva The significance of using idioms and collocations in english and uzbek dance terminology	218
G.S.Xolmurotova Tilshunoslikda terminologik tizimning aksiologik jihatlari.....	222
N.H.Sayfullayev, A.A.Mirzayeva Alisher Navoiyning “Nasoyim Ul-Muhabbat” asaridagi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar tahlili	226
N.A.Abdullayeva Tozalikning kishi salomatligiga ta’siri haqidagi o‘zbek va ingliz xalq maqollarining semantik tahlili	229
M.T.Qodirova Biznes diskursini metonimik modellashtirish.....	233
D.N.Satimova Ingliz va o‘zbek tillarining ekzistensial va noekzistensial shakllari: substandart leksik birliklar	240
V.A.Tangriyev Paulo Koeloning “Alkimyogar” asarining inglizcha va o‘zbekcha tarjimalaridagi paralingvistik vositalar	247
V.A.Giyosova Murojaat birliklarida aksiologik modallik ifodasi	254
R.Kahramanova The values of morphological indicators of quantitative words in dialects recorded on ancient monuments.....	260
I.M.Ataboyev Ta’na-dashnom konseptining madaniyatlararo farqlari: Ingliz va boshqa tillarda foydalanishni qiyosiy o‘rganish	264
M.E.Qodirova O‘zbek va ingliz tillarida san’atga oid terminlarning klassifikatsiyasi	270



UO‘K: 811.512.133

ALISHER NAVOIYNING “NASOYIM UL-MUHABBAT” ASARIDAGI ARAB TILIDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR TAHLILI**АНАЛИЗ АРАБСКИХ СЛОВ В «НАСАИМ УЛЬ-МУХАББАТ» АЛИШЕРА НАВАИ****ANALYSIS OF ARABIC WORDS IN “NASAIM UL-MUHABBAT” BY ALISHER NAVAI**

Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li¹ 
¹Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Mirzayeva Avazxol Azamat qizi² 
²Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida keltirilgan arabchadan o‘zlashgan so‘zlar izohi keltirilib, tahlilga tortiladi. Maqolani yozishdan asosiy maqsad A.Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarni tahlil qilib, ma’nosini izohlash. Maqolani yozish jarayonida so‘z tahlili, kontekstual tahlil, tarixiy va lingvistik yondashuv, taqqoslash metodlaridan foydalanildi.

Abstract

This article explains and analyzes words borrowed from Arabic in the work of the great thinker Alisher Navoi “Nasaim ul-Mukhabbat”. The main purpose of writing this article is to analyze and explain the meaning of words borrowed from Arabic in A. Navai’s work “Nasaim ul-Mukhabbat”. In the process of writing the article, verbal analysis, contextual analysis, historical and linguistic approach, and comparative methods were used.

Аннотация

В данной статье объясняются и анализируются слова, заимствованные из арабского языка в произведении великого мыслителя Алишера Навои «Насаим уль-Мухаббат». Основная цель написания статьи - проанализировать и объяснить значение слов, заимствованных из арабского языка в произведении А. Навои «Насаим уль-Мухаббат». В процессе написания статьи использовался словесный анализ, контекстуальный анализ, историко-лингвистический подход, методы сравнения.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Nasoyim ul-muhabbat”, zullisonaynlik, avqar, azg‘os, azho, bavnob, bilkulliya.

Key words: Alisher Navoi, “Nasaim ul-muhabbat”, zullisonaynlik, avkar, azgos, azha, bavnab, bilkuliya.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Насаим уль-мухаббат», зуллисонайнлик, авкар, азгос, ажа, бавваб, билкулия.

KIRISH

O‘zbek adabiyotining yorqin namoyondasi Alisher Navoiyning asarlaridagi aksariyat so‘zlar turkiy so‘zlar hisoblanadi. Alisher Navoiy turkiy tilni ko‘kka ko‘targan, rivojlantirgan olim bo‘lishiga qaramay, shoir davrida turkiy xalqlar foydalangan adabiy turkiy tilda ham o‘zlashma so‘zlar mavjud bo‘lgan. Shoir ijodida arabcha o‘zlashma so‘zlar ham uchraydi. Buyuk mutafakkirning zullisonayn ijodkor ekanligi hammamizga ma’lum. Shoir turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan. Bugungi kun o‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning salmoqli qismini arabcha so‘zlar tashkil etganidek, XV asrdagi turkiy tilning ham arab tilidan o‘zlashgan so‘zlari katta miqdorni tashkil etgan. Buni nafaqat Alisher Navoiyning, balki barcha mumtoz ijodkorlarimizning ham asarlarining nomlanishidan bilishimiz mumkin. Birgina “Nasoyim ul-muhabbat” (“Muhabbatning yengil shabadalari) asarining nomlanishiga e’tibor beradigan bo‘lsak, arabchadan *nasim - yengil shabada, muhabbat-lozim tutish, sobit tutish (mahbubni lozim tutish)* ma’nolarini ifodalaydi. Demak, turkiy til tarkibida o‘zlashgan so‘zlarni qo‘llagan holda ijod qilish zullisonaynlik bilan aloqador emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Alisher Navoiy asarlarining IV jildli izohli lug‘ati [1] kitobi buyuk shoir asarlaridagi so‘zlar, iboralar va ularning ma’nolarini izohlash, shuningdek, keng kitobxon ommasiga Navoiy

TILSHUNOSLIK

asarlarning yetib borishi uchun xizmat qiladi. Bu lug'atlar Navoiy asarlarining chuqur o'rganilishi, navoiyshunoslar qamrovining kengayishiga yordam beradi. Alisher Navoiyning 20 jildli "Mukammal asarlar to'plam"i [2] shoir asarlaridagi arabiy o'zlashmalarni kengroq o'rganishga, bir nechta asardagi til uslublarini o'zaro taqqoslab o'rganishda qo'l keladi. Shuningdek, "Nasoyim ul-muhabbat" asari orqali bir qancha arabiy o'zlashmalarni o'rganish va tahlil qilishda, ushbu o'zlashma so'zlarning turkiy va forsiy so'zlar bilan bog'lanishini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Manzar Abdulxayrning "Navoiy asarlarining izohli lug'ati" kitobi [3] esa Navoiy asarlaridagi murakkab, tushunilishi qiyin va kam qo'llanadigan so'z va iboralarning ma'nolarini o'rganishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada Navoiy asarlaridagi arabcha so'zlarning o'zlashish jarayoni va asarlardagi Navoiyning o'ziga xos uslubiyati aks etadi. Bu tahlil o'zlashgan so'zlarning lingvistik va semantik jihatlarini o'rganishga qaratilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

VII-VIII asrlarda islom dinining yoyilishi natijasida butun Movarounnahrda arabcha so'zlarning o'zlashish holati kuchaygan. Hozirgi o'zbek adabiy tilimiz shakllanganigacha qadar ham arab tilidan o'zlashgan so'zlar keng iste'molda bo'lgan. Adibning turkiy ijodida arab tili o'zlashmalari ma'lum ma'noda bezak bergan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bejizga Alisher Navoiy bunday demagan: "...to mulk arab xulofosi va salotinida erdi, falak ul vaqtda nazm dabiriga arab tili birla jilva berdi. Xasson Sobitdek va Laqitdek malikul kalom suhanguzorlar va ma'niy ofarin fasoxat shiorlar paydo bo'ldilar va o'z tillari bilan nazm adosining dodini berdilar". Biz XV asr turkiy tilining tarkibidagi arabchadan o'zlashgan so'zlarni bobomiz Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asari misolida tahlil etamiz.

Kashf ul-mahjub sohibi der emishki, ul avtod ul-arzdindur.

avtod ul-arz – bir jamoaning ulug' kishilari

Shayx Najibuddin Suhravardiy va g'ayrihumo bir avqor vaqor va baholig' kishi kirdi.

avqor - og'ir, vazmin, oliy martabali, muomalasi

Aning bila Xoja Nosiruddin Tusiy orasida as'ila va ajviba voqe' bo'lubtur

ajviba- javobgar

...bir eshikkaki, ne ko'rgaysen anda, ne bavnob.

bavnob - eshik soqchisi, eshik og'asi, eshik qorovuli, darvozabon, qorovul; parda tortuvchi, pardador.

Shayx ul-islom dediki, Abu Said Muqriy dediki, Abu Abdulloh Rudboriy baqliy yeydur erdim.

Bir baqliy oldim yana o'rniga qo'ydim.

baqliy- semizlik, bir nav oshko'k; yeyiladigan o't turi

Ya'qubki, muni ko'rdi, mulkni o'g'lig'a berdi va o'zin bilkulliya shayxqa taslim qildi.

bilkulliya- tamoman, kulliyatan, batamom, butunlay, mutlaqo.

Mazori Hiriy shahrida Xushk va Feruzobod darbi orasidadur.

darb - darvoza, eshik, joy, mavze.

...yarim kecha Bobo o'z yeridin qo'pib, maqtul qoshig'a kelib, ko'p yig'lab, nudbalar qilib degandurki, Tengri sening jazongni bergayki, behaqiqat el sanga zulm qildilar, ammo doyim ahli tahqiqg'a juhhoddin bu nav' ishlar voqe' bo'lg'ondur.

juhhod - inkor qiluvchilar, haqiqatni inkor qiluvchilar, mushriklar.

...Va ko'radurmenki vaqt avliyosi barcha buyunlarin sanga past qilibdurlar, ijlolu ikromingdin.

ijlol - buyuklik, ulug'lik.

Va azm qildimkim, agar manga chiqmoq doiyasi g'olib bo'lsa, kiyganimni yirtayin, to sotiri avrat qolmag'ay va to istihyo xuruj man'i bo'lg'ay.

istihyo- behayollik, uyatsizlik, beavratlik.

Xalq dasturi bila borur erdi, kamo besh-to'rt qadam borg'uncha bir xatm qildiki, harf- baharf fahm bo'ldi.

kamo- xuddi shunday.

Soqiy debdurki, Sanoyi fozil va latiftab' kishi.

latiftab' - nozik tab'li.

Aning uchunki, bizning qasdimiz bu izomi mashoir va ad'iyaki, har mahal maqomda qilildi...

mashoir - yo'l- yo'riq

Shayx Zayniddin Xavofiy quddisa sirruhu bila muosir ermish. Oralarida mukotabot va murosalot bor.

mukotabot-o'zaro xat yozishuv, yozishmalar.

...Abdulloh mening o'rnimg'a o'lturg'ay va mulhidlar va muftadelar dimog'iga urg'ay...

mulhid- Allohga, islom diniga munkir kelish, dinsiz, dahriy.

...Haq subhonahu va taolo tasbehin muxtalifa til bila aytadurlar, anvo'i taqdis bila.

muxtalifa- har xil, turlicha, turli-tuman, xilma-xil

Dedim: nasoriy maskanida bularniyam?

Dedi: ko'z ochgach, Tengri taolodin o'zga ikki dunyoda kishi ko'rarsen?

nasoriy - Iso dini izdoshi, xristian diniga mansub, nasroniy, torso

Ikki habbag'a nuxola sotqun olur erdi va andin ikki non pishirur erdi.

nuxola - po'sti maydalangan bug'doy; arpa yoki boshqa maydalangan narsalarning g'alvirdan o'tmay qolgan qismi.

Va Shayx Abulabbos aning fazlu sabqig'a e'tirof qilgan ekandur.

sabq - ta'lim; yetuklik, barkamollik

Aziz kishi ermish, zuhdu taqvo bila ma'ruf va salohu sadod bila mashhurdur.

sadod - to'g'ri va yaxshi so'zlik; adolatlilik.

Sulton ta'zimu tabjil sharti bejo kelturdi va o'z ollidan biryon kabutar Mavlono xizmatiga yubordi.

tabjil - hurmat - izzat qilish, ulug'lash, hurmatlash, ehtirom.

Ul ma'rifat kunjining valoyatosor holati zikridin va foyiz ul-anvor maqoloti fikridan ahli arboblarg'a naf'lar va shavqu irodat ahlig'a fayzlar etishti.

foyiz - fayzli, barakatli; foyiz ul-anvor - nurlar fayzi; nurlar koni.

Sho'rako emak targ'ibi qilsalar erdi, uyda nima yeb kelibmen, der erdi.

sho'rako - sheriklar, yo'ldoshlar, hamrohlar, qo'ldoshlar, yordam beruvchilar.

Ayn ul-quzot ba'zi maktubotida aning bayonida kim, g'ayb va huzur hech nav' bila yakson bo'lmas, balki ko'ngul bovujudi qurb ul-abdon taqozosi ham qilur.

qurb - yaqinlik, yaqin bo'lish.

XULOSA

Yuqoridagi so'zlarning barchasi XV asr turkiy tiliga o'zlashgan arab tilidagi so'zlar hisoblanadi. Ushbu so'zlarning barchasi Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" (A.Jomiyning "Nafahot ul-uns, hazarot ul-quds" asarining tarjimasini) asarida ishlatilgan so'zlar hisoblanadi. Bu so'zlarning aksariyati bugungi kundagi hozirgi o'zbek tilida gaplashuvchilar uchun notanish hisoblanadi, ya'ni *nuxola*, *qurb*, *sho'rako*, *bilkulliya* kabi so'zlar hozirgi kunda ishlatilmaydi va arabcha o'zlashma so'zlar qatorida keltirilmaydi. Ammo, *darb*, *latiftab'*, *muktabobot*, *foyiz* kabi so'zlar biroz o'zgargan ko'rinishda (*latif*, *maktub*, *fayz* ko'rinishida) uchraydi. Demak, davrlar o'tib o'zlashma so'zlar ham, o'z so'zlar kabi eskirar ekan. Arab tilidan o'zlashgan so'zlarning XV-XVI asrlardagi hajmining iste'mol qilish nisbati turli sabablarga ko'ra kamaygan. Bunday vajlardan biri XIX-XX asrdagi mustamlakachilik tuzumidir. Chunki bu davrga qadar xalq islom diniga qattiq e'tiqod qilar edi. Sho'ro davrida esa zo'rma-zo'raki yevropalashtirish natijasida xalq ongidan ma'lum darajada islom diniga oid fikrlarni chiqarib tashlash holati yuz berdi. Shu sababli ham bugungi XXI asr avlodi Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab kabi mutafakkirlarning asarlarini o'qishga, asl tarixini chuqur o'rganishga doimo ehtiyot sezadi. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asaridan tashqari boshqa barcha asarlarida ham arabchadan o'zlashgan so'zlar uchraydi. O'zlashma so'zlar omma uchun o'z tilining so'zi kabi singib ketadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. I-IV jildlar. Toshkent: Fan, 1983-1985.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 17-jild. Toshkent: Fan, 2001
3. Manzar Abdulxayr. Navoiy asarlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.